

**MILLATLARARO MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHNING  
NAZARIY ASOSLARI**

**AXMEDOVA GAVHAR FAXRIDDINOVA**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni millatlararo muloqotni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, globallashuv jarayonlari, bag'rikenglik, tolerantlikni rivojlantirish, o'quvchilarni o'zaro hurmat, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan.

**Abstract:** In this article, pedagogical features of formation of inter-ethnic communication, globalization processes, development of tolerance, tolerance, education of students in the spirit of mutual respect, religious tolerance, inter-ethnic harmony are covered.

**Kalit so'zlar:** millatlararo munosabat, millatlararo muloqot madaniyati, ko'p millatlilik, kompetensiya, globallashuv.

**Key words:** inter-ethnic relations, culture of inter-ethnic communication, multinationality, competence, globalization.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, millatlararo muloqot turli millat vakillarining o'zaro hamjihatlikda harakat qilishi, muloqotga kirishishi, fikr va axborot almashinishi davlatlar hamda millatlarning totuvlikda osoyishta yashashi va hamjihatlikda faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning lingvomadaniy mexanizmlarini takomillashtirish, antropologik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, jahon miqyosida ta'limi rivojlantirish tendentsiyalaridan kelib chiqib, o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning etnopedagogik tizimini takomillashtirish

muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash mazmunini takomillashtirish, milliy va umummadaniy kompetentsiyalarni rivojlantirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu ayniqsa, o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning tashkiliy-funktsional modelini ishlab chiqish, integrativ yondashuv asosida kommunikativ malakalarni rivojlantirish, o'quvchilarni baynalmilallik va tolerantlik ruhida tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayni zamonda, antropologik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida o'quvchilarda millatlararo muloqot tajribasini rivojlantirishning kollaborativ texnologiyasini, etnopedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O'zbek xalqi hayotini demokratlashtirish, ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va milliy bosimlarning kuchayishi sharoitida o'quvchilarga millatlararo insoniy munosabatlarni singdirish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

Ta'lim muassasasidagi ko'pmillatli o'quvchilar jamoasi orasida insoniy munosabatlar va aloqalarni shakllantirish jamiyat hayotini sog'lomlashtirishning muhim shartidir. O'zbekistonda yashovchi xalqlarda o'z-o'zini anglashning kuchayishi o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda. Bu O'zbekistonda jamiyat hayotini demokratlashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur muammoni echishda umumiyligi o'rta ta'lim muassasalari alohida o'ringa ega.

Aynan umumiyligi o'rta ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini rivojlantirish sohasida erishilgan yutuqlar negizida yosh avlodning axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularning ob'ektiv borliq bilan munosabatini kengaytirish orqali mikrososiumga tayyorlashga harakat qilinmoqda. CHunki jamiyatning yuksak madaniyatli, bilimli va insonparvar a'zolarini tarbiyalash uning hayotini sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday kishilargina ko'pmillatli jamiyatda muvaffaqiyatli yashab, faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nafaqat o'zining milliy madaniyatini biluvchi, uni hurmat qiluvchi, balki boshqa xalqlar madaniyatini ham qadrlaydigan, ularni o'z milliy madaniy

boyliklari bilan uyg'unlashtira oladigan, baynalmilallik ko'nikmalariga ega bo'lган yoshlarni shakllantirish jamiyat ehtiyojiga aylanmoqda.

Muloqot – o'zaro bir-birini tushunish, fikr almashinish, aloqa o'rnatish, axborot almashinish, hamjihatlikda harakat qilish demakdir.

Millatlararo muloqot esa, turli millat vakillarining o'zaro hamjihatlikda harakat qilishi, munosabatga kirishishi, fikr va axborot almashinishidan iborat jarayondir. SHuning uchun ham, o'quvchilarni yoshligidan boshlab millatlararo muloqotga tayyorlash lozim. CHunki O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, unda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida turli millat vakillarining o'zaro hamjihatlikda yashab faoliyat ko'rsatishi qonuniy kafolatlangan. CHunonchi, Konstitutsiyaning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi»[1], deb ta'kidlangan.

Darhaqiqat, o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash ham siyosiy, ham ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lган dolzarb masala hisoblanadi. Tarixiy tajribalardan shu narsa ma'lumki, turli millat vakillari bir-birlari bilan o'zaro muloqot o'rnatganlar, buning uchun esa bir-birlarining madaniyatlar, qadriyatlarini o'rganganlar, qadriyatlarga asoslangan do'stona munosabat yo'lga qo'yilgan.

Millatlararo muloqot masalasi so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Muloqotning asosiy maqsadi – sub'ektlarning maqsadga muvofiq tarzda bilvosita hamkorligini amalga oshirishdan iborat. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash kommunikasiya mazmuni va kommunikasiya modelini aniqlashni taqozo qilmoqda.

Muloqot jarayoni sub'ektlari turli millat vakillari bo'lган o'quvchilar, ijtimoiy guruhlar, umuman jamiyat a'zolari bo'lishi mumkin. O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash jarayoniga uch nuqtai nazardan yondashish

lozim: makro, midi va mikro darajalar. Makrodarajada muloqot sub'ekti sifatida turli millat vakillari bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy guruhlari, jumladan, «Kamalak», «Kamolot» kabi bolalarining ijtimoiy guruhlari ishtirok etishlari mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida qadriyatlarga asoslangan munosabatlar rivojlanmoqda. Bunday sharoitda o'quvchilarning hayot faoliyati, uning ijtimoiylashuvi o'rtasidagi insonparvarlashuv va pedagogiklashuv imkoniyatlari kengayadi. O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning mididarjasи ta'limning butun sinf jamoasi yoki kichik guruhlar a'zolariga millatlararo muloqotga kirishish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Bunday ishchan va ko'p qirrali ijodiy muloqot yo'llari o'quvchilarning turli millat vakillari bilan muloqotga kirishish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quvchilarda millatlar madaniyati, ularning mohiyati, siyosiy-ijtimoiy, madaniy vazifalari haqida keng tasavvur hosil qilinadi. SHu bilan bir qatorda, ularga mamlakatimiz va xorijda ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar, kashfiyotlar va tajribalar, madaniy yangiliklar, qadriyatlar haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning mikrodarajasi turli millat vakillari bo'lgan ikki sub'ekt darajasida namoyon bo'ladi. Ularning muloqoti natijasida har ikki millatga mansub bo'lgan madaniyatlar va qadriyatlarning mohiyati anglanadi. Ularning kommunikativ faoliyatida ma'naviy hamkorlik o'zaro bir-birlarini tushunish uchun sharoit yaratadi. Mazmun jihatdan kommunikativ yondashuvda ikki millat vakillari o'rtasidagi suhbatda nihoyatda muhim bo'lgan muloqot yordamida o'zaro bir-birini tushunish, hamkorlik amalga oshiriladi.

O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashda yuqori darajadagi kommunikativ madaniyat qaror topadi. Ularning bir birlarini tushunishlari osonlashadi. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash jarayonini o'zi o'qitayotgan o'quv predmeti mazmunidan kelib chiqqan holda loyihalashtirishi kerak. Bunday ishlanmalar doirasida o'quvchilarning kommunikativ hamkorlik modellaridan foydalanish ham

maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashda monologik va dialogik muloqot usullaridan keng foydalanish mumkin. Muloqotning monologik usuli birgina o'quvchining yagona fikr va irodasi ustunligini namoyon etadi.

Ma'lumki, o'zaro hamkorlik sub'ekt-sub'ekt munosabatlari doirasida amalga oshiriladi. Muloqotning ushu modeli o'quvchilarni millatlararo hamkorlikka tayyorlashda bir qadar qulaydir.

Muloqotning dialogik modeli o'quvchilar fikrlarining birgalikda namoyon bo'lishi, jarayon sub'ektlari fikrlarining uyg'unlashuvidan iboratdir. Bu o'rinda turli millat vakillari o'rtasidagi dialog ularning bir-birlarini tushunishlarini osonlashtiradi. Jamiyatda esa, muloqotning dialogik modeli ijtimoiy jarayonlar, aloqalar va o'zaro hamkorlik orqali jamiyat a'zolarining turli ijtimoiy yo'nalishlardagi ishtirokini faollashtirish bilan kechadigan ijtimoiy-kommunikativ maydonning kengayishiga bog'liq demokratik tuzumda namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning dialogik modeli shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning muhim ko'rinishi sifatida baholanadi. Inson rivojlanishining muhim mezoni sifatida uning faolligi va mikrososiumni o'zgartirish, ijodiy imkoniyatini rivojlantirishda ko'rindi.

O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash natijasida ularning o'zaro fikr almashinishi, turli milliy qadriyatlarni faol o'zlashtirishlari ta'minlanadi. Bunda axborotning muayyan bilimlar va ma'lumotlar sifatida uzatilishi, tasnifi, qayta ishlanishi rivojlanadi va ayniqsa, bilimlarni o'zlashtirishning yangi darajasiga erishiladi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Ташкент: «Ўзбекистон», 2008. – Б. 4
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz // - Т.: O'zbekiston, 2017. 1-tom, 46-bet.

3. X.I. YUsupova. O‘quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning nazariy asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 16 bet.
4. Abduvaliev F.N. «Yoshlarning ta’lim migrantsiyasi: ijtimoiy sabablari, strukturasi va holati» mavzusida dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2021 yil, 5-bet.
5. Bekmuradov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya, Toshkent,
6. Qahhorova, G., & Ramazonov, J. (2023). AXBOROTLARNING TALABA YOSHLAR RUHIYATGA SALBIY TA'SIRINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana*, 1(4 Part 2), 23-25.
7. Djalolovich, R. J. (2023). NIKOH-OILA MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 473-477.
8. Ramazonov Jahongir Djalolovich, & Xomidova Nodira Toyirjon qizi. (2023). TALABALARDA O‘ZINI IDORA QILISH MOTIVATSİYASI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 12–18. Retrieved from